

**XORAZM SHAHARSOZLIK MERO SINING HOZIRGI
ARXEOLOGIYA FANIDAGI O'RNI**

Normetov Bunyod Jasur o'g'li¹

*¹ Termiz davlat universiteti tarix fakulteti Arxeologiya
yo'nalishi talabasi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.05.2025

Revised: 30.05.2025

Accepted: 31.05.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:

*Xorazm, Tolstov,
Qo'yqirilganqal'a,
Tuproqqal'a,
Oybo'yirqal'a, Avesto,
Katta Xorazm, Xvayrezm,
Amirobod madaniyati,
Farasman,*

Ushbu maqolada qadimiy Xorazm hududidagi shaharsozlik an'analari va ularning arxeologiya fanidagi hozirgi o'rni tahlil qilinadi. Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar asosida qadimgi shaharlarning shakllanishi, ularning rejalashtirilishi, mudofaa inshootlari, diniy va ma'muriy markazlar joylashuvi hamda ijtimoiy hayotning arxitekturadagi aksini ochib beradi. Xususan, Tuproqqala, Qiyot, Ayazqala kabi yirik arxeologik yodgorliklar misolida shaharsozlik madaniyatining rivojlanish bosqichlari ko'rsatilgan. Maqolada bu merosning nafaqat tarixiy, balki zamonaviy arxeologik izlanishlar, madaniy merosni muhofaza qilish va turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati ham yoritilgan. Xulosa o'rnida Xorazm shaharsozlik merosi hozirgi arxeologiya fanining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

KIRISH O'zbekistonda qadimiy sivilizatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishi tarixida Xorazm o'lkasining tutgan o'rni beqiyosdir. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bu hudud miloddan avvalgi ming yilliklardan boshlab yuqori darajadagi shaharsozlik madaniyatiga ega bo'lgan. Ayniqsa, hozirgi arxeologiya fanida Xorazm shaharsozlik merosi muhim tadqiqot obyektiga aylangan. Qadimgi Xorazm O'rta Osiyoning Misridir"-

Insoniyat sivilizatsiyasining ko'hna makonlarini o'rgananuvchi arxeologlar ulkan yutuqlarga ko'hna Xorazm zaminidagi makonlar, qabriston, qal'a va qo'rqnolarni izlab topish va o'rganish jarayonida erishdilar. Xorazm tarixi, madaniyati va san'atini betakrorligiga yana bir marta amin bo'ldilar. Xorazm – Markaziy Osiyoning Turon pasttekisligida, Amudaryo deltasida joylashgan qadimiy tarixiy o'lkadir. "Xorazm" so'zi dastlab "Avesto"da uchraydi, "Avesto" Sharq yozma adabiyotimizni eng qadimgi manbasi sifatida alohida axamiyat kasb etadi. "Avesto"da qadimgi Turon o'lkasi va Eronning o'ziga xos tarixiy geografiyasi bayon etiladi. "Avesto" Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi qadimiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi, diniy qarashlari xamda jamiyatda ro'y berayotgan tabaqalanish haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. O'sha davrlarda jamiyat turli tabaqalarga bo'linib, boylar va kambag'allar sinflari paydo bo'la boshlagan. "Avesto" ruxoniylar, jang aravalariда yuruvchi harbiylar, dehqon-chorvadorlar, hunarmandlar, qullar mavjudligi haqida xabar beradi. Jamiyatning sinflarga bo'linishi natijasida dastlabki davlatchilik ham vujudga keladi. "Avesto"da bayon qilingan voqealar asosan, "Arianam Vayja" mamlakatida, ya'ni olimlar tomonidan "Katta Xorazm" deb atalgan davlatda ro'y beradi. Bu davlat Prourata (Parfiya), Mouru (Marv), Gava (Suqdiyona), Xvayrezm (Xorazm)ni o'z ichiga olgan.

Asosiy qism:

Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan xududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya va miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan erlarda (Shimoliy g'arbiy O'zbekiston, Shimoliy g'arbiy Turkmaniston) xududlarida Xorazm nomi bilan ataluvchi davlatlar vujudga kelgan. Xorazm qadimda o'zining mustahkam shahar devorlari, mudofaa inshootlari, markaziy ibodatxonalari va murakkab suv inshootlari bilan ajralib turgan. To'rtko'l, Ko'hna Urganch, Qo'yqirilgan qal'a Tuproqqal'a, Ayazqal'a kabi arxeologik yodgorliklar nafaqat yuksak me'moriy va shaharsozlik san'atini aks ettiradi, balki bu yerda ijtimoiy-siyosiy va madaniy tizimlar qanchalik rivojlanganini ham ko'rsatadi. Baqtriya va Xorazm davlatining xududiy chegaralari o'rta Amudaryo oqimidagi erlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari miloddan avvalgi VI-V asrlarga oiddir. O'lkada yashagan aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

Shaharlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. Qadimgi yozma va arxelogik manbalarni o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, qadimgi xorazmliklar ilm-fan sohasida o'z davri uchun ilg'or bo'lgan yutuqlarga erishganlar va hayotga tadbiq qila olganlar. Xorazmliklar astronomiya va matematikadan yaxshi xabardor bo'lib, burchak o'lchovi uskunalarini yaratganlar va ulardan foydalanganlar. Osmon jismlarini o'rganish, tabiat hodisalarini kuzatishga ixtisoslashgan falakkiyot fani ko'hna Xorazmda taraqqiy qilib, shu davrda qurilgan inshootlar bizning kunlarimizgacha etib kelgan. Ana shu inshootlardan biri ko'hna Xorazmning madaniy yodgorligi Qo'yqirilgan qal'asidir, eramidan avvalgi IV asrda bunyod etilgan bu qal'a To'rtko'ldan 22 km shimoli sharqda joylashgan. Qal'a faqat ibodatxona sifatida emas, balki astronomik kuzatishlar olib borish uchun ham mo'ljallab qurilgani, bu yerda yana arxeologlar tomonidan eramizning uchinchi asrga oid dastlabki taqvimnoma hujjat, ya'ni "Xorazmliklarning kalendari" topilgan. Bu topilmalar qadimda xorazmliklarning o'z kalendari bo'lganligidan guvohlik beradi. Miloddan avvalgi VI asr va milodiy XIX asrlar oralig'ida Xorazm o'zining iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy yuksalish jarayonida Markaziy Osiyo mintaqasida o'ziga xos o'rinnegallagan o'lka sifatida tanildi. Chunki Xorazm xududida qadimgi "Dasht yo'li" va "Buyuk Ipak yo'li"ning shimoliy-g'arbiy tarmog'i, maxalliy axamiyatga ega bo'lgan qadimgi Baqtriya va Xorazm, So'qdiyona va Xorazm savdo yo'llari orqali Eron va Hindistonga o'tadigan janubiy savdo yo'llari kesishardi. Xorazm bu yo'llarning chorraxasida joylashgan bo'lib, bu erga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar. Natijada Buyuk Ipak Yo'li bo'y lab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi. Buyuk Ipak Yo'li faqat karvon yo'li bo'lbagina qolmasdan, yevroosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning xar tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qilgan yo'l ham edi.

Demak, 3 ming yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo'lgan. Miloddan avvalgi ming yillik boshlariga aloqador "Amirobod madaniyati", quyi Amudaryo havzasidagi sun'iy sug'orish inshootlari tizimi (Gerodot qadimda Oks (Amu) daryosi bo'y lab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish inshootlari barpo etilganligini yozadi) hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar - Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar Xorazm vohasidagi qadimiy davlatchilik belgilaridir. Xorazm

tarixini chuqur o'rgangan mashhur rus olimi S.P.Tolstov "Qadimgi Xorazm" kitobida antik Xorazm tarixini to'rt davrga bo'ladi:

1. Uy-joy devorlari bo'lgan shahriston madaniyati (miloddan avvalgi VI-IV asrlar)
2. Qanqa (Qang) madaniyati (miloddan avvalgi IV asr - milodiy I asr)
3. Kushonlar madaniyati (milodiy II – II asrlar)
4. Kushon-Afrig' o'tish madaniyati (milodiy Sh-V asrlar)

Bu davrlarga oid Amudaryoning o'ng sohilida 250 dan ziyod, so'l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o'rni topilgan. Qanqaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jingilja, Toshxirmon singari qal'a va istehkomlar o'rni bunga misol bo'la oladi. Xitoyning Tan sulolasi davrida (milodiy VII-X asrlar) Xorazmda asosan turkiy qabilalar yashagan. Tanshu solnomasida shunday deyiladi: "Barcha turk elatlari ichida ho'kiz qo'shilgan arava faqat shu erda (Xorazm) uchraydi. Bu aravalarda savdogarlar turli viloyat va elatlarni aylanib, savdo qilib yuradilar." Bu o'rinda gap Xorazmning savdo-sotiq bilan kun kechiruvchi o'troq aholisi ustida ketyapti. Shu bilan birga Xorazm vohasiga yaqin cho'l va dashtlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador turkiy qabilalar yashagan. Eron Axomaniylari shohi Kayxusrav (Kir, Kurush) (miloddan avvalgi 558-530 y.) Xorazm va unga tutash hududlarni bosib olgan. Xorazm miloddan avvalgi 6-5 asrlarda Axomaniylar davlatining 16-satrapligi (viloyati) tarkibiga kirgan. Lekin ko'chmanchi Sak (Massagetlar) qabilasi ustiga hujum qilganida Kayxusrav malika To'marisdan yengilib, halok bo'lган. Xorazm o'z mustaqilligini tiklagan. Miloddan avvalgi III asrda esa u Qang davlati tarkibida bo'lган. Xorazm tarixining to afrik'iylar sulolasi asoschisi Afrik'gacha (305 y.) bo'lган davri haqida ma'lumotlar kam. Faqat qadimda Kayxusrav (mil.av. 1200-1140 y.), Saksafar (mil.av. 519- 517 y.), Farasman (mil.av. 329-320 y.), Xusrav (mil. av. 320 y.) singari xorazmshohlar bo'lganligi, Farasman miloddan avvalgi 328 yilning bahorida O'rta Osiyoga bostirib kirgan makedoniyalı Aleksandr (Iskandar) huzuriga muzokara uchun sovg'a-salomlar bilan kelganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan. Abu Rayhon Beruniy afrik'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlardan 22 tasining nomini keltirgan. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Tuproqqal'a, 305 yildan keyin esa Kat (Kos) shahri bo'lган. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalib, yirik sug'orish kanallari, yangi shahar va qal'alar barpo etilgan. Hunarmandchilik, san'at, ichki va tashqi savdo keng rivoj topgan. Milodiy IV-VIII asrlarda Xorazm yangi yuksalishni boshdan kechirdi. Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a kabi inshootlar ana shu davrlarda qurilgan. Xorazmning Etil (Volga) bo'yidan Markaziy Osiyo orqali Mo'g'uliston va Xitoyga hamda Eronga boriladigan savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi uning

iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan. 712 yili Xorazmni arablar bosib olgan. Xalifalikning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim xorazmliklarning tarixiy adabiyoti va madaniy merosini saqlab kelgan olimlarni qirg'in qilgan va quvib yuborgan. Shu sababli arablar istilosigacha bo'lган davrdagi yozma tarixiy manbalar deyarli uchramaydi. Qo'yqirilgan qal'a — qadimgi otashparastlar ibodatxonasi bo'lib, To'rtko'l shahridan 22 kilometr shimoli-sharqda joylashgan. Ayrim mutaxassislar tomonidan uning asl tarixiy nomi Xadarkat sifatida keltiriladi. Qo'yqirilgan qal'a nomini esa fanga arxeolog S.P.Tolstov kiritgan bo'lib, u 1937 yilda Qadimgi Xorazm qal'alarini o'rganish chog'ida hamroxlik qilgan mahalliy aholi vakillariga asoslanib, arxeologik ob'ektni "Qo'yqirilganqal'a" deb nomlagan. Bu borada ellikqal'alik tarixshunos olim Samandar Ismoilov quyidagicha izoh berib o'tgan: "Qal'aning bunday nomlanishi, aniqrog'i, shu nomda ilmda qayd etilishining sababi: o'tgan asrning o'ttiz yettinchi yilida Amudaryoning o'ng sohilidagi tarixiy obidalarni aniqlash va ularni ro'yxatga olish maqsadida kelgan arxeolog S.P. Tolstov kichik ekspeditsiya — fotograf Y.A.Polyakov va Beruniy tumanidagi "Sakson bir" ovulida istiqomat qiluvchi tuyakash Sansizboy O'r umov bilan birgalikda tuyalarda sahro kezib, mashaqqat chekib, mayjud ko'hna obidalarning barchasini birma-bir suratga olib, ro'yxatga tirkab chiqadi. Shaxsan men arxeolog Sergiy Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya a'zolaridan so'nggi nafasimgacha minnatdorman. O'sha kezlarda aksariyat qadimiy qal'a va qo'rg'onlarning haqiqiy nomi unut bo'lib, ba'zilari mahalliy aholi tomonidan turlicha nomlanib, ayrimlari butunlay nomsiz edi. Xullas, Bozorqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Qizilqal'a, Teshikqal'a, Dumonqal'a, Qavatqal'a, Burgutqal'a kabi o'nlab yodgorliklar yerli kishilar tomonidan qanday atalgan bo'lsa, xuddi shu nomda tarix sahifasidan o'rin olgan. Bundan tashqari, keksa otaxon Sansizboy O'r umov ayrim nomsiz qal'alarни tashqi ko'rinishiga qarab o'zicha nomlab ketavergan. Bu odat mahalliy aholiga xos bo'lib, obidalarni nomlashda uning tashqi ko'rinishiga ko'proq e'tibor berishgan. Masalan, Teshikqal'a — shu kungacha saqlanib qolgan devorlaridan birida kattakon teshik bo'lgani uchun, Burgutqal'a — bir devori qo'nib turgan burgutday qo'nqayib turgani sabab, Qizilqal'a — quyoshning chiqish va botish paytida qal'a devorlarining qizarib ko'rinishi tufayli shunday nomlangan. Qo'yqirilganqal'aga kelsak, aytishlaricha, qaysi bir zamonda qal'a poyida o'tlab yurgan qo'y suruvi bo'rilarining kutilmagan hamlasidan nobud bo'lgan va Qo'yqirilganqal'a degan nom shundan qolgan ekan", — deya aytib o'tgan Samandar Ismoilov. Qo'yqirilganqal'a obidasi miloddan avvalgi IV-III asrlarda bunyod etilgan bo'lib, markazida ikki qavatli doira shaklidagi ibodatxona mavjud. Uning atrofi ikki qator paxsa va xom g'ishtdan tiklangan mudofaa devori bilan o'ralgan. Qal'a atrofida eni 15 metr,

chuqurligi 3 metrlik xandaq mavjud bo'lgan va suv bilan to'ldirilgan. Qo'yqirilgan qal'a devorida quldarlik davridagi O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq shaharsozlik uslubiga xos bo'rtib chiqib turgan maxsus burjlar bo'lib, ularda o'q otish uchun nishon tuynuklari bor. Devor bilan markaziy bino oralig'iда xo'jalik inshootlari joylashgan. Ravoqlar uchun trapetsiya shaklidagi maxsus g'isht qo'llanilgan. Qal'aning sharqiy qismida darvozasi bo'lib, darvoza oldi labirint shaklida qurilgan. Qo'yqirilgan qal'a markazidagi ikki qavatli binoga maxsus zinapoyalarda chiqilgan. Binoning tomi tekis bo'lib, birinchi qavatda alohida-alohida 8 ta gumbazli xonalar mavjud bo'lgan. Ular ichidan sopoldan yasalgan tobutlar, idish-tovoqlar, har-xil rasmlar solingen yog' idish (xum va ko'zacha)lar, naqshinkor suvdonlar topilgan. Topilmalar ichida ma'budlarning terrakota haykalchalari, devorga ishlangan rangli naqshlar, osmon jismlarini kuzatishga mo'ljallangan buyumlar bor. Aynan shu topilmalarga asoslanib, xulosa qilinishicha, Qo'yqirilganqal'a tarixiy obidasi o'z vaqtida ibodatxona bo'lish bilan birgalikda rasadxona vazifasini ham o'tagan. Qo'yqirilganqal'adan topilgan ostodonlar dafn marosimlaridan, sopol idishlardagi yozuvlar esa qadimgi xorazmliklarning tili va yozuvi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tuproq-qal'a yoki "Yer shahri" - Qadimgi Xorazmnинг eng qimmat va mahobatli yodgorliklaridan biridir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida, Bo'ston qishlog'idan 12 km masofada joylashgan. Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining boshqa ko'plab yodgorliklari kabi ushbu yodgorlik ham taniqli arxeolog va tarixchi Sergey Pavlovich Tolstov tomonidan topilgan. Bu qidiruv ishlari 1938 yilda sodir bo'lgan. Shaharning maydoni 120 getktarni tashkil etadi va keyinchalik ma'lum bo'lishicha, bir vaqtlar bu yerda mudofaa devori va kvadrat minoralar bilan o'ralgan shahar va hashamatli qal'a-saroy bo'lgan. Bir vaqtlar muhtasham qal'a qadimiy shaharning o'zagi bo'lib, eramizning II-III asrlarida Xorazm shohlarining qarorgohi bo'lgan. Bu yerda, mudofaa devori orqasida dushman hujumlaridan himoya galereyalari bo'lib, ko'plab ko'chalar va savdo rastalari joylashgan, shuningdek markazda keng old ko'cha mavjud bo'lgan. Qadimgi shahar shunchalik katta ediki, uning hududi 200 ga yaqin xo'jalik va turar-joy binolaridan iborat 10 ta kvartalni o'z ichiga olgan. Har bir kvartalda o'zlarining kichik-markazlari bo'lib, ularda ziyoratgohlar va hunarmandchilik binolari joylashgan. Shaharda 2,5 mingdan ortiq aholi yashagan, ularning yarmi saroy qarorgohida ishlagan. Saroy alohida e'tiborga loyiqdир. Uning qanchalik ulug'ver va hashamatli ekanligini tasavvur qilish qiyin emas, chunki uning balandligi 40 metrga yetishi mumkin va saroy haykaltaroshlik va rasmlar bilan bezatilgan 150 xonadan tashkil topgan saroydan iborat bo'lgan. Qazishmalar davomida olimlar Tuproq-qal'aning qiziqarli tafsilotini ta'kidlashdi: ellistik uslubidagi badiiy rasmlar nafaqat saroy binolarini, balki

oddiy fuqarolarning turar-joylarini ham bezatgan, bu esa qadimiy shaharning yuksak madaniyatidan dalolat beradi. Qal'a uch qavatdan iborat bo'lgan. Uning xonalaridan ko'plab yodgorliklar topilgan: oziq-ovqat qoldiqlari (suyaklar, urug'lar), idishlarning bo'laklari va butun qismlari, turli xil idishlar, zargarlik buyumlari, haykallar (eng mashhur haykallardan biri - Ruhoniy haykali), rasmlar va hatto qadimgi Xorazm qo'lyozmalari. Hashamatli saroyning markazida mahobatli devoriy rasmlar va antiqa naqshlar bilan bezatilgan taxt o'rnatilgan xona bor edi. "Qirollar zali"da ellistik san'atiga oid haykallar, turli portretlar va yuzlari juda realistik tasvirlangan haykallar topilgan. Tuproq-qal'ani qazish ishlari shov-shuvga sabab bo'ldi va III asrda shahar Qadimgi Xorazmning ilg'or poytaxti bo'lganligi, bu zaminda qadimiy madaniyatning gullab-yashnaganligi, ko'chalar va binolar yaxshi loyihalashtirilganligi, Tuproq-qal'ani geometriya qirolligi deb atash mumkinligi haqida xulosa qilish imkonini beradigan qiziqarli materiallar olindi. Katta Oybug'irqal'a – SHumanaydan 41 km shimoli-g'arbda joylashgan. Mahalliy aholi o'rtasida Jampikqal'a nomi bilan ma'lum. Yodgorlik bиринчи мarta Xorazm arxeologiya – etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan 1946 yilda topilib, uning umumiyo ko'rinishi rasmga tushirilgan, rejasi chizilgan, lekin arxeologik qazish ishlari olib borilmagan. 1956 yilda yodgorlik yangidan ko'zdan kechirildi, olingan arxeologik materiallarga qarab uni yoshi mil. avv.. IV, eramizning I asri bilan belgilandi. Yodgorlikning yuqori madaniy qatlami X-XIII asrlarga oid degan xulosaga kelindi. 1964-66 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining Ustyurt guruxi yodgorlikda tekshirish ishlarini olib bordi. Yodgorlik to'g'ri bo'rchakka yaqin shaklda qurilgan bo'lib, sharqdan g'arbg'a qarab cho'zilgan. Qal'aning umumiyo maydoni 10 hektar. Yodgorlik qadimda mudofaa devor bilan o'rab olinib, devor yodgorlikning 3 tomonida saqlanib qolgan. Sharqiy devor uzunligi 120 m, shimol qismidagi devor 412 m, g'arbiy devor esa 260 m. Sharqiy va g'arbiy devorning pastki qismida paxsa devor mavjud bo'lib uning balandligi 6, 1 m. Shimoliy va g'arbiy tomonidagi devorda aylana shaklda burj joylashgan bo'lib, devorda yon tomonga o'sib chiqishi 5-6m. Burjlar o'rtasidagi masofa 48-53m. Yodgorlikning g'arbiy devor o'rtasida darvoza joylashgan bo'lib, darvoza oldi murakkab labirint bilan mustaxkamlangan. Yodgorlikdan mudofaa devori tuzilishini o'rganish 6,5 m maydonda ishlari olib borilgan. Bizgacha saqlangan devor balandligi 1m, tashqi devordan 3,92 m uzoqlikda ko'shimcha devor qurilgan. Uning balandligi 1,2m, kengligi 1m. Devor tosh plitadan va xom g'ishtdan tiklangan. (40x42x9x3sm). Mudofaa devor va ko'shimcha devor o'rtasida qum tuproqlar bilan to'ldirilgan. Bunday tadqiqot ishlari g'arbiy, shimol tomonidagi devorlarda olib borildi, natijada bir-birini takrorlaydigan devor va ko'shimcha

devor o‘rganildi. Yodgorlikning mudofaa devorining pastki qismi paxsadan tiklangan. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida olingan materiallarga qarab yodgorlikning mudofaa devori III qurilish davridan iborat ekanligi aniqlangan.

Xulosa:

Xorazmning boy shaharsozlik merosi arxeologiya fanida alohida o‘ringa ega bo‘lib, u nafaqat o‘tmish sivilizatsiyalarining taraqqiyot darajasini, balki ularning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini ham chuqr o‘rganish imkonini beradi. Qadimiy shaharlarning arxitektura va rejalashtirishdagi yondashuvlari hozirgi zamонави arxeologik tahlil uslublari orqali chuqr tadqiq qilinmoqda. Ushbu merosni ilmiy asosda o‘rganish, uni saqlash va ommalashtirish bugungi kunda nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki turizm, madaniy merosni muhofaza qilish hamda milliy o‘zlikni anglashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun Xorazm shaharsozlik merosini o‘rganish va uni ilmiy muomalaga kiritish arxeologiya fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. O‘zbekiston tarixi 1- kitob. Oliyo‘quv yurtlari tarix fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent “VNESHINVESTPROM” 2019-yil
2. G‘ayratdin Xo‘janiyazov. “Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari”. Mil.avv VI asrdanmilodiy IV asrgacha. Toshkent “O‘zbekiston”; 2007-yil.
3. Хоразм тарихи. 1-жилд. Урганч 1997-йил
4. Gudkova “Qo‘yqirilgan qal‘a”, 1967.
5. <https://khivamuseum.uz/uz>
6. file:///C:/Users/pc/Downloads/A.S.Sagdullayev.pdf
7. <https://meros.uz>
8. „Arxiv nusxasi“. 2022-yil 25-iyunda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 21-may.
9. Xorazm va Xorazmliklar. Umid Bekmuhammad. Buxoro. 2023.